



ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI SAVODGA O'RGATISHNING ZAMONAVIY USULI

D. M. Isoqjonova-

Nizomiy nomidagi TDPU surdopedagogika
va inklyuziv ta'lim kafedrası o'qituvchisi

A. Xudoynazarova

Nizomiy nomidagi TDPU surdopedagogika
va inklyuziv ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni savodga o'rgatishning ahamiyati, mazmuni, hamda yozish va o'qishga o'rgatishda samarali metod va usullardan foydalanish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: metod, analitik-sintetik, nuqson, PAT, piktografik usul, daktil, talaffuz, vizual.

Аннотация:

В данной статье рассматривается значение и содержание обучения грамоте детей с нарушением слуха, а также использование эффективных методов и приемов в обучении чтению и письму.

Ключевые слова: метод, аналитический синтез, дефект, ПАТ, пиктографический метод, дактиль, зрительное произношение.

Annotation:

This article discusses the importance and content of teaching literacy to children with hearing impairments, as well as the use of effective methods and techniques in teaching them to write and read.



Key words: method, analytical synthesis, defect, PAT, pictographic method, dactyl, pronunciation, visual.

Hozirda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni savodga o'rgatish dolzarb muammolardan biridir. Savodga o'rgatish eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda o'qish va yozishni boshlang'ich bilimlarini olishni ko'zda tutadi. Hozirda maxsus maktablarda savodga o'rgatishda tovushlarni analitik – sintetik metodi qo'llanilmoqda. Ushbu metodga ko'ra o'qituvchi bolalarni nutqda so'zlarni, so'zlarda bo'g'inlarni, ularda tovushlarni ajratishga o'rgatish lozim. Tovushni talaffuz etilishi ajratgandan so'ng o'qituvchi ushbu tovushning belgisini, ya'ni harfni ko'rsatadi. So'ng bolalar yangi harf bilan bo'g'in va so'zlar tuzishni o'rganadilar. O'qitishni boshidanoq o'quvchilarda daktilomalarni aniq va to'g'ri qo'llanilishini va ularni so'zlarda birlashtirishni o'rgatish zarur. Bundan tashqari har bir o'quvchi bilan daktil va og'zaki so'zlashni rivojlantirishga alohida e'tibor berish lozim. O'quvchilar o'qishni Alifbe kitobidan boshlashadi. Alifbo davri asosiy hisoblanadi va shuning uchun u darslikning eng katta qismini qamrab oladi. Avval bolalar rasmlar asosida jadvallardan alohida so'zlar, kichik iboralarni o'qiydilar. Shu bosqichning o'zidayoq ular har bir so'z ortida predmet, har bir ibora ortida ma'lum mazmun yotishga ko'nikadilar. O'qilgan, anglangan munosabatni ayniqsa PAT darslari asoslanadi, unda har bir yangi so'z predmet bilan taqqoslanadi. Bunda o'quvchi har bir o'qilgan so'ziga alohida e'tibor berishi lozim, chunki aynan shundan uning predmet amaliy faoliyati kelib chiqadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qishga o'rgatishda maxsus yondashuv va metodlar mavjud. Bunday bolalar uchun dars jarayoni ko'proq vizual va kinestetik usullarga asoslanishi lozim. Vizual metodlarga labdan o'qitish usuli, piktografik usullarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Labdan o'qish-o'qituvchi va boshqa odamning lab harakatlarini kuzatish orqali so'zlarni tushunib o'qish demakdir. Piktografik usul-so'zlarni, matnlarni rasmlar orqali ko'rsatib o'qitishni nazarda tutadi. O'qituvchi o'quvchilarga har bir hikoyani o'qitishdan avval shu mavzu haqida tushuncha berish kerak. Bu ularning dunyoqarashini kengaytirishga hamda qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilarning o'quvchilarga tushuntirish ishlarini olib borishi ularni shu matnni anglab o'qish ko'nikmasini hosil qilishida ham yordam beradi.



O'quvchilarga o'qishni o'rgatishda kichkina matnlarni o'qitishdan boshlanadi. Matn ustida ishlashda o'quvchilar matnni to'la o'qishadi, so'ng o'qituvchi bilan birgalikda savol javob qilib olishadi. Bu ish ularda nima o'qishganligi haqida o'ylashga, o'qituvchini esa bolalar matnni qanday tushunganliklarini muhokama qilishga undaydi. Erta yoshdan boshlab, kattalarning og'zaki hikoyasi eshituvchi odamning hayotiga oson va tabiiy ravishda kirib boradi va mustaqil o'qish uchun o'ziga xos vosita bo'lib xizmat qiladi. B.D. Korsunskaya va unga uslubiy qo'llanma kar maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish, unga qiziqish va muhabbatni rivojlantirish yo'llari va imkoniyatlarini topishga bag'ishlangan ko'p yillik tadqiqotlar natijasidir. Albatta, kar bolalar uchun o'qishning boshida o'qish uchun taklif qilinadigan ibtidoiy, o'ta soddalashtirilgan matnlarni faqat badiiy deb atash mumkin, ammo bu matnlar kar maktabgacha yoshdagi bolalarga hikoyaning yangi, notanish shaklida mavjud bo'lgan his-tuyg'ular, tushunchalar va bilimlar dunyosini ochadi.

Ma'lumki, kar maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish vizual va samaralidir. Assimilyatsiya vizual idrok etish asosida amalga oshiriladi, bu tegishli lug'at, shu jumladan axloqiy tushunchalarni o'z ichiga olgan so'zlarni to'plash uchun asos bo'lib xizmat qilishi kerak. So'zning harf tarkibini oddiygina yodlash ham kar bolalardan uni ko'p marta takrorlashni talab qiladi. So'zning ma'nosini tushunish uni turli kontekstlarda ishlatishni o'z ichiga oladi. Korsunskaya B.D. o'qituvchilar va otalarning e'tiborini bolalarning hikoyani idrok etish natijasida ularga ko'rinadigan to'g'ri xatti-harakatlar modelini qayta-qayta boshdan kechirishlarini ta'minlash zarurligiga qaratdi. O'qish uchun kitobni nutqni rivojlantirish darslari uchun darslikka aylantirmaslik kerak. Bolalarning ta'limini zerikarli va monoton emas, balki ularning rivojlanishi uchun foydali qilish zarur. Aynan o'qilgan hikoyaning asosiy so'zlari leksik va grammatik umumlashtirish bo'yicha darslarda tahlil predmetiga aylanadi. Individual so'zlar kundalik hayotda va o'yinda ishlatiladigan ko'rsatmalarga kiritilgan. Hikoya o'yinlarini tashkil qilishda, bolalar hikoyani dramatizatsiya qilishda dialoglardan foydalanishadi. Suhbat nutqidagi mashqlarga o'tkaziladi. "Oilada kar maktabgacha yoshdagi bolani tarbiyalash" kitobida Korsunskaya B.D. Daktilologiya yordamida o'qishni o'rgatish usullarini batafsil bayon qiladi. U ikki yo'nalishda ishlashni tavsiya qiladi. Birinchidan, bolaning



hayotiy g'oyalari va taassurotlari doirasini kengaytirish, uning e'tiborini atrofdagi tabiat hodisalariga, tushuntirishni talab qilmaydigan tushunishi mumkin bo'lgan voqealarga qaratish kerak; mazmuni faqat vizual idrok etish asosida bolaga ochiq bo'lgan illyustratsiyalar va vizual hikoyaning boshqa turlaridan foydalanish kerakligini ta'kidlaydi. Ikkinchidan, bu barcha his-tuyg'ular va tajribalar so'z bilan ifodalanishi kerakligini aytib o'tgan.

Birinchi navbatda yozish jarayonida to'g'ri turish ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish kerak. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari gigiena ko'nikmalarini va kasbiy gigiyena ko'nikmalarini rivojlantirishlari kerak. Yozish paytida to'g'ri turish ko'nikmalarini rivojlantirish va takomillashtirish algoritmi:

- qulay o'tirish, oyoqlaringizni yuqoriga qo'yish;
- kaft bilan ko'krak qafasi va stol orasidagi masofani tekshirish;

Tayyorlov sinfi dasturiga ko'ra o'qishga o'rgatish vaqti yozishga o'rgatishni boshlanishini ilgarilaydi. Kar o'quvchilarda yozma nutq og'zaki daktil asosida shakllanadi. So'z va iboralarni yozishda ular albatta daktillashadi va so'zni talaffuz etishadi. Talaffuz malakalarini rivojlangani sari daktillash kamroq namoyon etiladi, biroq so'z tuzilishini chiqarganda qiyinchilikka duch kelsalar yana uni daktillashga qaytadilar. Bolalar yozishga o'rganishga daktil nutqiga o'rganish jarayonida tayyorlanib boradilar. Ular so'zlarni analiz va sintez qiladilar, kesma alifbo bilan ishlaydilar. O'quvchilar I chorakda savodga o'rgatish va PAT darslarida qo'l materikasini rivojlanishiga asos bo'ladigan yozuvga tayyorlaydigan mashqlar bajarishadi. Yozuvga o'rgatishni boshidanoq bolalarda to'g'ri o'tirish, ruchkani to'g'ri ushlash, daftarni yozish jarayonida surib borish odatlari shakllanadi.

Xarflarni yozishga tayyorgarlik mashqlari o'z ichiga turli chiziqlikchalarni, ilmoqchalarni, avallarni yozishga o'rgatishni oladi. Xarflarni yozishga o'rganish izchilligi "Alifbo" betlarida aksini topgan. Yozuvga o'rgatishda imkon qadar o'rganilayotgan xarfni so'zga kiritish lozim, ya'ni nafaqat xarflarni balki so'z va kichik iboralarni yozishga o'rgatish lozim. Kar o'quvchilar yozma nutqni egallashda ma'lum qiyinchiliklarga duch keladilar, asosiysi bu tovush va so'zlarni ifodalashdagi izchillikda kuzatiladi. Xatto so'z tarkibini og'zaki daktilda egallab, alifbodan so'zni yig'ishni bilsalar ham o'quvchilar so'zni yozma ifodalashga qiynaladilar.



Bolalarni yozishga mashq qildirishni samaradorligini oshirish uchun yozma nutqni PAT darslarida qo'llash maqsadga muvofiqdir (masalan: savolga qisqacha javob berish, bajarilgan ish haqida hisobot yozish). Bu mashqlar nafaqat yozuvni egalash uchun, balki muloqotda yozma nutqdan foydalanish malakalarini o'qitishni boshlash uchun ham zarur hisobladi.

Savod o'rgatish so'zlarning tovush-harf tahliliga asoslanadi, shuning uchun o'quvchi birinchi marta yozayotgan har bir so'zni tovush-harf tahlilidan o'tkazish kerak. Bunga parallel ravishda imlo qoidalariga rioya qilish kerak: fonematik eshitishni rivojlantirish, unli va undosh tovushlarni farqlash, urg'uli va urg'usiz unlilar, so'zlardagi urg'uni aniqlash, jarangli va jarangsiz undoshlarni farqlash, so'zlarni bo'g'inlarga bo'lish qoidalarini o'rgatish zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni savodga o'rgatishda visual ta'lim usullari, imo-ishora tili, daktil nutqi, maxsus texnologiyalar va individual yondashuvlar o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, muloqot va o'qish ko'nikmalarini uchun oila, o'qituvchi va defektolog mutaxassislarning hamkorligi zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamarajabova Z.N. Ona tili o'qitish maxsus metodikasida pedagogik texnologiyalar – T., 2004
2. Thomas Arnold A method of teaching the deaf and dumb speech, lip – reading, and language – London , 2004
3. Zikeev A.G. Maxsus (tuzatish) umumiy ta'lim muassasalarida o'quvchilar nutqini rivojlantirish. - M.: Akademiya, 2000 yil.